

ARAB XALIFALIGI TARKIBIDA O'RTA OSIYO

Maxsudova Nozima Orif qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

ANOTATSIYA:

Mazkur maqolada Arab xalifaligi haqida qisqacha malumot, arab bosqini davrida O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayoti, xiroj va boshqa o'lpon undirish, yerga egalik huquqlari, arab tilining tarqalishi va arablashtirish jarayoni, bosib olingan hududlarga imtiyozlar berilishi, islom dinining tarqalishi, namoz o'qiydiganlar uchun masjidlar qurilishi vazardushtiylik ibodatxonalarini jome masjidlariga aylantirish. Shuningdek ummaviylar vakili bo'lgan Nasr ibn Sayyor davrida olib borgan siyosati.

Kalit so'zlar: Arab xalifaligi, kadiwar, O'rta osiyo, Xiroj, jizya,

ABSTRACT:

This article provides brief information about the Arab caliphate, social life in central Asia during the Arab invasion, collection of tribute and other tributes, land ownership rights, the spread of the Arabic language and the Arabization process, consession to the conquered territories, the spread of vislam, prayer construction of mosques for pilgrims, conversion of ministerial temples into public mosques. Aslo, the policy of Nasr ibn Sayyor, who was the representative of Ummawis.

Key words: Arab caliphate, kadiwar, Central Asia, khiroj, jizya.

АБСТАКТ:

В данной статье представлены краткие сведения об Арабском халифате, общественной жизни в средней Азии в период арабского нашествия, сборе дани и других податей, правах собственности на землю, распространении арабского языка и процессе арабизации, уступках завоеванных территориях, распространении ислама, молитвенное строительство мечетей для паломников, превращение министерских храмов в общественные мечети, а также политика Насра ибн Сайяра, который был представителем уммависов.

Ключевые Слова: Арабский халифат, кадивар, средняя Азия, хиродж, джизья,

KIRISH

Milodiy VI-VII asrlarda Arabiston yarimoaroli aholisi taraqqiyotining turli darajasi hayot kechirar edi. Ularning malum bir qismida ilk davlatchilik alomatlari kuzatilayotgan bo'lsa,

malum bir qismida hali ham urug'-aymog'chilik, ibtidoiy to'da alomatlari yaqol sezilib turardi. Arabiston yarimoroli shimoliy hududlarida aynan mana shunday qoloqlik o'sha paytlarda hukm surardi.

O'sha paytda mavjud bo'lgan Eron, Vizantiya, Misr, Mesapatamiya kabi qadimiy madaniyat o'choqlari bilan solish tirganda ushbu hududlar ancha madaniyatning quyi pag'onasida bo'lgan. Arabiston yarimorolidagi Yaman hududi esa taraqqiyotning ancha ilgarilab ketgan bosqichida edi va o'sha paytlarda bu hududda savdo –sotiq avjiga chiqan hamda o'sha madaniyat o'choqlari paydo bo'la boshlagan paytlar edi. Arabiston yarimoroli davlatining tashkil topishi qay tariqa va qay sharoitda, qachon vujudga keldi. Bizga malumki dunyoning judayam ko'plab qismida insonlar etiqod qiluvchi islom dini buning uchun katta sababchi bo'lgan. O'sha paytlarda savdo –sotiq markazlaridan biri hisoblangan Makka qo'rg'oni, Makka shahri o'sha paytdanoq diniy etiqotning markazi sifatida nom qozongan edi. Islom dini paydo bo'lgunga qadar ham arab xalifaligining tashkil topishi esa barchamizga malum bo'lgan Muhammad alayhisalomning payg'ambar deb elon qilinishi, unga vahiy kela boshlagan davrdan boshlab to mamlakatni birlashtirgan davrgacha bo'lgan barcha ijtimoiy –siyosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM

Arablar O'rta osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shaharlar va aholi joylarida o'z qo'shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o'z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligining hukmronligi aholi uchun og'ir yuk bo'lib qoldi. Istilochilar avval boshda Movarounahrning hunarmandchilik va savdo shaharlari, obod viloyatlariga bostirib kirib ularni taladilar va katta o'ljalarga ega bo'ldilar. O'lkalarni bosib olish chog'ida dehqonchilik vohalari oyoq osti qilinib, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ko'pgina joylarda qurg'oqchilik yuz bera boshladi¹. V. V Bartoliyning fikricha bu voqealar 733- yilda Xurosonda katta ocharchilikka sabab bo'ldi. At-Tabariyning quyidagi so'zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi:<<qurg'oqchilik Xurosonda ocharchilikni keltirib chiqardi, oziq-ovqat mo'l bo'lgan Marv esa u yerga 733-734 yillarda yordam yubormadi>>, - deb yozadi². Arablar tomonidan movarounahrning bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf-odati, dini va e'tiqodi, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati poymol etildi. Mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy hayotiga qayta tiklab bo'lmas darajada putur yetkaziladi. Istilochilar Movarounahrning hamma joylarida mahalliy din namoyondalari, madaniyat, adabiyot va ilm ahllarini quvg'in qiladilar.

Mahalliy sog'd yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib, yo'q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasiga o'rnatilgan turli-tuman haykallarning parchalab tashlangani, Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlarning, ayniqsa odam rasmlarining o'yib bo'yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir³. Qutayba ibn Muslim Xorazm xattotlarini qatl

ettirdi va din peshvolarini qirib tashlab, ularning kitob va qo'lyozmalarini yoqib yuborgandan keyin, -deb yozgan edi Beruniy, -Xorazmliklar savodsiz bo'lib qoldilar, ularning faqat yodda saqlab qolgan xotiralarigina qoldi, ammo vaqt o'tishi bilan bu unutilib, faqat o'zlari uchun mos bo'lgan xotiralargina saqlanib qoldi.

Yana shuni ham aytish joizki Xuroson va Movarounahr noibi sifatida Nasr ibn Sayyor (738-748-yillar) hokimyat tepasiga kelishi bilan arablarning O'rta Osiyoni zabt etishning yangi va so'ngi bosqichi boshlandi. Nasr ibn Sayyor arablarning mudariylar qabilasiga mansub bo'lib, serg'ayrat odam edi, Movarounahrni yaxshi bilar edi. U dehqon zodagonlarini o'z tomoniga og'dirishga muvaffaq bo'lib, ularning aslzodalarga xos imtiyozlarini saqlab qoldi, arab zodagonlari va dehqonlari o'rtasida qarindoshlik aloqalari o'rnatishga homiylik qildi, bu ishda o'zi o'rnak bo'ldi. Nasr ibn Sayyor davrida ikki hukmron guruh – arab hamda mahalliy sog'd, baqtrya va xorazm guruhlarining birikuvi boshlandi. Nasr buxorxudot Tug'shodning qizini xotinlikka oladi va Xunbundagi yerlar unga in'om etiladi. shunday qilib, arablar –sog'd unsurlarining hukmronligi boshlandi. Arablarning xiroj va boshqa o'lponlarini undirish siyosatini olib borishi osonlashdi. Sog'dliklar jamiyatining ijtimoiy hayotida o'zgarishlar boshlandi. Arablar istilosiga qadar O'rta Osiyo xalqlari istehkomli dehqonchilik manzilgohlarida katta patriarxal oilalar tarzida yashagan. Bunday oilaga dehqonchilik ishlarini bajaruvchi kadivarlar – ayrim qaram kishilar ham kirgan. Xo'jalikning turli sohalarida erkak va ayol qullar mashg'ul edi. Sinfy tabaqalanish ko'plab kadivarlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq yer egalari kichik xo'jaliklarga ega edi, yani aftidan ular yerni kichik qismlarga bo'lib, ziroatchilarga –kadivarlarga ijaraga berishdi. Ozodlikka erishgan qul ham koranda bo'la olardi. Arab xalifaligi hukmronligi davrida sog'diy aholining asosiy qismi jizya va xiroj to'lashi kerak bo'lgan. Xiroj miqdori hosilning $\frac{1}{3}$ qismiga qadar yetgan, bazan undan ortib ketgan. Jizya, xiroj va boshqa soliqlardan tashqari, ziroatchi aholi gardoniga boshqa og'ir maxsulot soliqlari ham bor edi. At-Tabariyning takidlashicha, mulkdorlarning bo'yinlarida muhrlik qog'oz osilib turardi. Bu shundan dalolat beradiki, arablar jizya va xiroj to'lovchilir bo'yniga muhr bosishdek ayanchli udumni O'rta Osiyoda erta joriy etishgan.

Dehqonlar o'z qurol aslahalari bilan kanallar qazish va tozalash, yo'l qurish va eski yo'llarni tamirlash, ko'priklar, shahar qal'a devorlari barpo etish va shu kabi boshqa ishlarni majburiy shaklda bajarishgan. Ziroatchi aholi arablarning hokimyat tepasiga kelishi bilan erkinlikdan mahrum bo'ldi va arablar hokimyatiga tobe bo'lib qoldilar. Shuni ham aytib o'tish kerakki arablar qo'shini tarkibiga mahalliy aholi orasidan ko'plab erkaklar majburan safarbar qilindi.

Sinfy tabaqalanish boshqa yo'ldan ham bordi: dehqonlarning barcha erkin qismi otrga uloqtirildi va ularga muhr bosish lozim bo'ladi. Yirik yer egalarining oilalari esa imtiyozlar qatoriga qo'shildi. Kadivarlar, ayniqsa qullar esa dehqon sanalmadi. VIII asrning 40-80 yillarida aholi ommasi fotihlarga va ular joriy etgan tartibotlarga qarshi kurashini davom ettirdi. Islom dini targ'ibotchilari qayerga bormasin, atrofida soqchilar, harbiy otryadlar bilan bo'lardi. Arablar o'zlari zabt etgan hududlaridagi aholini birlashtirishda islom katta kuchga ega deb

hisoblashdi. <<o'lja haqidagi suralar >>, o'ljani taqsimlashni qonunlashtirdi. Islom dinini targ'ib etish bilan birga arab tilining tarqalishi va aholini arablashtirish jarayoni ham kechdi. Arablar bilan birga yangi musulmonlardan ham jizya va xiroj solig'i olish bekor qilindi. Hattoki Umar II soliq yig'uvchilardan quron va hadislariga qat'iy amal qilishni buyurdi. Bosib olingan shaharlarda masjidlar qurishga katta ahamiyat berildi. Ko'p hollarda masjidlar uchun yangi binolar qurmay, zardushtiy ibodatxonalarini moslashtirib olishdi (Buxoro, Samarqand, Marv va boshqa shaharlarda shunday bo'lgan).

Islom dinining tarqalishi katta qiyinchilik bilan kechdi. Hatto arablar xizmatiga o'tgan dehqonlar ham o'z dilida "kofir"ligicha qolaverdi. Nasr ibn Sayyorning bo'lg'usi qaynotasi buxorxudot Tug'shoda har jihatdan arablar qo'llab –quvvatlagan bo'lsa–da, namoz o'qishni xoxlamadi, uni mahalliy zardushtiylik rasm –rusumiga muvoffiq dafn etishdi. Uning ikkali o'g'li umrlarining oxirida islomdan uzoqlashishdi.

Islom dini savdogarlar o'rtasida katta muvaffaqiyat qozondi, chunki arablar ularga savdogarchilik uchun shart –sharoit yaratib berishdi. Shunday bo'lsada buxoro savdogarlari –kakhashonlar juma namoziga borishmagan va zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan. Bir vaqt ular bilan musulmonlar o'rtasida chinakkam kurash boshlangan. Narshaxiyning yozishicha, bir vaqtlar arablar aholini juma namoziga jalb etish uchun ikki dirhamdan pul tarqatishgan. ular yangi dinni qabul qilishga keskin qarshilik ko'rsatishdi, Arablashtirishga javoban keng xalq harakati bo'lib o'tdi.

XULOSA

Arablar istilo qilgan hududlarda mahalliy xalqlar va arablarning o'zaro aloqalari yuz berdi. Arablar bosib olgan hududlarda islom dini asosiy din hisoblandi. Aholi orasida din vakillari paydo bo'ldi (shayx, imom, mulla, qozilar). Aholi namoz o'qishi uchun masjidlar qurildi va arab tilidan savodlar berildi va shuningdek "Qur'on"ni o'qishni o'rgatishdi. Islomiy taqvim joriy etildi. Inson vafotidan keyin dafn marosimlari musulmon urf-odatlariga mos tarzda o'tkaziladigan bo'ldi. Diniy bayramlar ham o'tkaziladigan bo'ldi (hayit, ramazon va boshqalar).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bibirajab Yo'ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rnini. *Miasto Przyszłości*, 41, 424–429.
2. Bibirajab Yuldosheva, & Guliniso Rashidova. (2023). BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (XVIII ASRDA). "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 1, 348–351.
3. Burxonov, S., Khamidov, O., & Yavmutov, D. (2023). Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo'llari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 41(41).

4. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 637-645.
5. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
6. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.
7. Narshaxiy. «Buxoro tarixi» asari. T.: Kamalak. 1991.
8. Rahimov M., Zamonov A. O'zbekiston tarixi. T.: "Fan", 2019.
9. Rakhimov, O. K., Yavmutov, D. S., & Toshov, K. R. (2020). Natural Geographical Description. Land and Water Fund of Bukhara Region, its Usage Problems. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9), 5724-5735.
10. Sh, Y. D. (2021). Ensuring Sustainable Growth of Uzbekistan's Economy on the Basis of Efficient Use of Investments. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(2), 1-4.
11. Sh, Y. D. (2022). THE IMPORTANCE OF DEPOSIT BANKS IN COMMERCIAL BANKS. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(5), 14-17.
12. Sh, Y. D., & Jo'rayev, A. T. O'zbekistond. s. no. tni yashil iqtisodiyot t. moyill. ri. sosid. rivojl. ntirish msll ri. "Sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining raqamli transformatsiyasi: tendensiyalar, boshqaruv, strategiyalar". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro. 2022 yil 2-3 mart.
13. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39.
14. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
15. Yuldosheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
16. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOYIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
17. Yuldosheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 9-13.

18. Yuldosheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.
19. Аскарлов А. Ўзбекистон халклари тарихи. Т.: «фан», 1992.
20. Yuldosheva, B., & Razikova, M. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 420-422).
21. МУРТАЗАЕВА Р. Х. Ўзбекистон тарихи. «Янги аср авлоди», Т.: 2003.
22. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1№ 4).
23. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5).
24. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (5), 46-51.
25. Явмутов, Д. Ш., Бурхонов, Ж., & Каримова, К. (2023). ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ Қўллашда Хорижий Давлатлар Тажрибаси ва уни Ўзбекистонда жорий қилиш имкониятлари. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 2(10).
26. Dilshod, Y., & Sardor, B. (2022). O 'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O 'TISHI: ISTIQBOL YO 'NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR. *Journal of new century innovations*, 10(2), 159-168.
27. Yoldasheva, B., & Azizbek, H. (2023). The Population of Uzbekistan During the Soviet Period. *International Journal of Culture and Modernity*, 35, 1–5.
28. Yuldosheva, B. (2024). The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 01039). EDP Sciences.
29. Yuldosheva, B. (2023). ORTA OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY TARIXIY GEOGRAFIYASI ANNOTATSIYA. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
30. Khamidov, O., Yavmutov, D. S., & Burkhanov, S. N. (2023). Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 431, p. 01056). EDP Sciences.
31. Bibirajab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 7-10.